

"G'ALABA BOG'I"ga "Gidromelioratsiya" fakulteti talabalari tashrifl...

2023 yilning 5 may kuni "Gidromelioratsiya" fakulteti 1-kurs 93 nafar talabalari poytahtimizning Olmazor tumanida joylashgan "G'alaba bog'i"ga 9-may "Xotira va qarirlash kuni" munosabati bilan tashrif buyurishdi.

Ushbu bo'g'da 2 jahon urushida jasorat ko'rsatib qahramonga aylangan ajdodlarga atab o'rnatilgan haykallar, "Shon-sharaf" muzeyi hamda urush davrida foydalanilgan turli texnik qurol va transport vositalari talabalarda katta ta'surot qoldirdi. 1941-1945 yillar davomida o'zbek halqining minglab o'g'lonlari vatan himoyasi uchun otlangan.

Insoniyat tarixida ikkinchi jahon urushi yeng katta fojialardan biri sifatida o'rin yegallagan. Bu urushga jahonning 72 mamlakati qo'shilib, ulardagi armiyalar safiga 110 mln kishi safarbar qilingan yedi. Urush davomida qariyb 55 mln kishi o'ldirilib, minglab shahar va qishloqlar, zavod va fabrikalar, madaniyat obidalari, kommunikasiya va irrigasiya inshootlari vayronaga aylantirilgan yedi. Ko'rilgan zarar va sarflangan mablag'larning umumiy miqdori 4 trln. dollarni tashkil qildi.

